

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETIDA AGROKIMYO FANINING
RIVOJLANISH TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI****Akramjonova Mashxura***Farg'ona davlat universiteti**Agrokimyo yo'nalishi 2-bosqich magistranti***Utanova Gulnoza***Farg'ona davlat universiteti**Agrokimyo yo'nalishi 2-bosqich magistranti***Xomidova Nilufar***Farg'ona davlat universiteti**Agrokimyo yo'nalishi 2-bosqich magistranti***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 13.12.2025**Revised: 14.12.2025**Accepted: 15.12.2025***KALIT SO'ZLAR:**

O'zbekiston Milliy universiteti, agrokimyo, ilmiy tadqiqot, o'g'itlar, tuproq unumdorligi, laboratoriya, innovatsiya, qishloq xo'jaligi, zamonaviy texnologiya, ilmiy maktab.

O'zbekiston Milliy universiteti ilm-fan va ta'lim bo'yicha yuksak an'analarga ega bo'lgan qadimiy va mashhur ilm dargohi hisoblanadi. Mamlakatimizda ilmiy-tadqiqot faoliyati keng yo'lga qo'yilganidan buyon bu dargoh nafaqat tabiiy fanlar, balki qishloq xo'jaligi sohasini chuqur o'rganishda ham muhim markazlardan biriga aylangan. Ayniqsa, agrokimyo fani bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va izchil tadqiqotlar O'zbekiston Milliy universitetining e'tiborga loyiq yutuqlaridan biridir. Agrokimyo — bu tuproqning kimyoviy tarkibi, o'simliklarning oziqlanishi, o'g'itlar va ulardan to'g'ri foydalanish usullarini o'rganadigan fan sanaladi. Mamlakatimizda yerlarning unumdorligini oshirish, qishloq xo'jaligida yuqori sifatli hosil yetishtirish uchun agrokimyo fanining ilmiy asoslarini chuqur o'zlashtirish va ilmiy amaliyotga tatbiq qilish muhim

ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Milliy universitetining agrokimyo yo'nalishida olib borayotgan faoliyati mustaqillikdan avval va keyingi davrda yangi bosqichlarga ko'tarilib bordi. Jamiyatimiz taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ushbu soha universitetda e'tiborni tortuvchi ilmiy maktablardan biriga aylandi. Agrokimyo bo'limlari, zamonaviy laboratoriyalar, malakali o'qituvchilar va olimlar, respublika hamda xalqaro ilmiy loyihalarda faol ishtirok etuvchi yosh tadqiqotchilar bu sohaga ilmiy hayot bag'ishlab, uning rivojiga alohida hissa qo'shib kelmoqda. Universiteting har bir bosqichi o'ziga xos bosqichlarni bosib o'tdi. Boshlang'ich yillarda fan asoslari va metodikasini ishlab chiqish, o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlash, zamon talabiga mos fan dasturlarini yaratish asosiy vazifalardan bo'lib kelgan. So'nggi yillarda esa dunyo tajribasi va zamonaviy ilmiy natijalardan keng foydalanilmoqda. O'zbekiston Milliy universitetida agrokimyo fanining rivoji bir necha asosiy yo'nalishlarda ko'zga tashlanadi. Birinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlarining kengayishi va chuqurlashuvi, mavjud tuproq va agroekologik sharoitlarning tahlili asosida tuproq unumdorligini oshirish, zamonaviy o'g'itlarni sinab ko'rish va ularning samaradorligini o'rganish ishlari tizimli amalga oshirilmoqda. Mahalliy va xorijiy ilmiy maktablar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, chet el oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-institutar bilan tajriba almashinuvi yo'lga qo'yilgan, xalqaro grantlar va loyihalarda universitet olimlari faol ishtirok etmoqda. Talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish, ularni amaliyotlarga safarbar etish, zamonaviy ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar bilan ta'minlash yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Milliy universiteti bazasida modern texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy o'quv-uskunalar bilan jihozlangan laboratoriyalar va tajriba maydonlari tashkil etilgani ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirmoqda. Zamonaviy mikroskoplar, kimyoviy analiz uskuna va apparatlari, zamonaviy laboratoriya vositalari yordamida talaba va tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarini olib borish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu esa agrokimyoning nazariy hamda amaliy bilimlarini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi [1].

Agrokimyo yo'nalishida o'quv jarayonlarining takomillashuvi ham yuksak darajada olib borilmoqda. O'quv dasturlari zamonaviy ilm-fan talabiga ko'ra yangilanadi, fan dasturlari chet el ilg'or tajribasi asosida takomillashtiriladi, dunyoda e'tirof etilgan ilmiy adabiyotlar,

onlayn kutubxonalar va multimediya resurslari bilan boyitiladi. Universitetda yosh avlodga dars beruvchi tajribali professor-o'qituvchilar muntazam konferensiyalar, seminar-treninglar, mahorat darslari, ochiq mashg'ulotlar o'tkazadilar. Ular yangi ilmiy metodologiyalar va innovatsion usullarni tatbiq qilgan holda talabalarda agrokimyo bo'yicha zamonaviy dunyoqarash va chuqur nazariy-amaliy bilimlar shakllantirishga harakat qiladilar. Ushbu o'quv jarayonlari doirasida talabalarning mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi [2].

Agrokimyo sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar O'zbekiston qishloq xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Milliy universiteti olimlari tuproq va o'simliklarning o'zaro ta'sirini, o'g'itlarning optimal dozasini va tuproq unumdorligini oshiruvchi omillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Tajriba natijalari asosida samarali tavsiyalar ishlab chiqiladi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha ham ilmiy asoslangan usullar ishlab chiqiladi. Bu esa respublikaning turli hududlarida tuproq va ekinlarning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish, amaliy xulosalar va ilmiy-tadqiqot ishlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda xalqaro loyihalarda universitetning agrokimyo bo'yicha yetakchi olimlari faol qatnashib, tajriba va izlanish natijalarini amaliyotga tatbiq etishda ilg'or natijalarga erishmoqdalar. O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi magistratura va doktorantura bosqichlarida agrokimyo sohasi bo'yicha o'z ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan yosh olimlar ham ilm-fan va ishlab chiqarish bog'lanishini mustahkamlashga xizmat qilmoqdalar. Agrokimyo ilmiy maktabi shakllanishi, professor-o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilar o'rtasida ustoz-shogird an'analari mustahkamlanishi natijasida fan taraqqiyoti uchun muhim imkoniyatlar vujudga keldi. O'zbekiston Milliy universitetida agrokimyo yo'nalishidagi ilmiy innovatsiyalar, yangi o'g'it turlarining yaratilishi, ulardan foydalanish texnologiyalari, ekologik barqaror agrotexnologiyalar amaliyotda keng tatbiq etilmoqda. Natijada, agrokimyo sohasida zamonaviy ilmiy natijalar respublikamiz qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish, yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Turli hududlar uchun mos o'g'it turlarini yaratish, tuproq resurslaridan oqilona foydalanish, o'simliklarni ozuqa moddalariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash kabi ilmiy izlanishlar natijasida O'zbekiston Milliy universitetining obro'-e'tibori oshmoqda [3].

Ta'kidlash lozimki, universitetda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va yirik loyiha ishlarida talabalarning keng ishtiroki, yosh tadqiqotchilarning faoliyatini rag'batlantirish va

ularni zamonaviy laboratoriyalarda ishlashga jalb etish sohani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu orqali ilmiy va amaliy tajribalar uyg'unligi, nazariy bilimlarni mustahkamlash, yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirish imkoniyati yaratiladi. Universitet qoshidagi ilmiy laboratoriyalar hamda tajriba maydonlarida agrokimyo sohasiga oid barcha kerakli tajribalar va tahlillar o'tkaziladi. Bu esa nafaqat talabalarning, balki yosh olimlarning, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarning ham ilmiy izlanishlarni davom ettirish va ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi. O'zbekiston Milliy universitetida agrokimyo bo'yicha olib borilayotgan ilmiy va o'quvishlar mamlakatimizda xalqaro miqyosda ham e'tirof etilishiga olib kelmoqda. Universitet olimlari va tadqiqotchilari xalqaro ilmiy jurnallarda o'z maqolalari, yangi izlanish natijalari, zamonaviy innovatsion g'oyalari bilan ishtirok etib, respublikamizni dunyo ilm-fan makonida munosib o'rin egallashiga hissa qo'shmoqda. Shuningdek, chet elda malaka oshirayotgan yosh olimlar universitetga yangi tajriba va bilimlar olib kelmoqda, bu esa ilmiy salohiyatni yanada oshirishga zamin yaratmoqda [4].

Agrokimyo fanining universitetdagi rivoji respublika miqyosidagi dolzarb muammolarni hal etishda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishda, ekologik barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Agrokimyo sohasidagi innovatsion loyihalar samaradorligi, zamonaviy texnologiyalarning o'zlashtirilishi natijasida universitet ilmiy jamoasi yangi natijalarga erishmoqda. Talabalar, yosh olimlar, tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilar o'zaro hamkorlikda sohaning dolzarb muammolarini hal etish, ilmiy va amaliy loyihalarni hayotga tadbqiq etishda samarali faoliyat yuritmoqdalar. Bu esa mamlakatimizda agrokimyo fani va uning zamonaviy rivojining ishonchli kafolati hisoblanadi [5].

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Milliy universitetida agrokimyo fanining rivoji yuksak bosqichda davom etmoqda. Universitetda yaratilgan ilmiy-tadqiqot maktablari va ilmiy muhit, yangi ilmiy izlanishlar natijalari, zamonaviy o'quv dasturlari va texnik bazaning mustahkamlanishi natijasida agrokimyo sohasida yuksak natijalarga erishilmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyoti va qishloq xo'jaligining barqaror rivojida universitet agrokimyo maktabining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Agrokimyo ilmiy yutuqlari tufayli yurtimiz tuproq resurslari samarali boshqarilmoqda, hosildorlik va sifat ko'rsatkichlari oshmoqda, ekinlar baraka topyapti. O'zbekiston Milliy universitetida bu sohaga alohida e'tibor qaratayotgan ilmiy jamoalar, yosh avlod va iqtidorli olimlar orqali ilm-fan va amaliyotning

uzviy bog'liqligi tobora mustahkamlanyapti. Bu esa fan va ilmiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarda ham izchil davom etishiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Минев В.Г. История и состояние агрохимии на рубеже XXI века. Кн. 3., Москва: Изд-во МГУ, 2010. – 799 с.
2. Рожкова А.Н., Щукин И.М. История агрохимии и методология агрохимических исследований: учебное пособие. Владимир: ИВиГиГ, 2014. – 255 с.
3. Турсунов Ш., Қахарова М. O'zbekiston tuproqshunos olimlari. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2009 – 222 б.
4. Дзянгаров С.Х. Агрохимия. Учебник. – Санкт-Петербург: Лань, 2023 – 350 с.
5. Global Symposium on Soil Erosion. FAO Headquarters. 15-17 may 2019, Rome: FAO. 173 p.
6. Минеев В.Г. Агрохимия. Учебник. – М.: Лаборатория знаний. 2022 – 1200 с.
7. Djuraev A.G., Sattorova D.M. O'zbekistonda agrokimyo fanining rivojlanish tarixidan. Agrohimiya va agroekologiya ilmiy-amaliy jurnali. 2023, №2 – 41-43 b.